

MIKROMOLIYA TASHKILOTLARI BUXTALTERIYA HISOBIDA HISOB SIYOSATINI
SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY ELEMENTLARI

G'ofurov Iskandar

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali

ORCID: 0009-0003-5021-746X

gafurov_iskandar@sbsue.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada mikromoliya tashkilotlari buxgalteriya hisobida hisob siyosatini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Hisob siyosatining asosiy elementlari – buxgalteriya hisobini yuritish shakli, foiz tushumlarini tan olish usullari, kredit zaxiralari va yomon qarzlarni hisobga olish mezonlari tizimli ravishda tahlil qilingan. "IMKON FINANS", "Vodiy Taraqqiyot" va "Biznes Finans" mikromoliya tashkilotlari misolida amaliy ko'rsatkichlar asosida hisob siyosati farqlari tahlil qilinib, takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mikromoliya tashkilotlari, buxgalteriya hisobi, hisob siyosati, foiz tushumi, kredit zaxiralari, ijtimoiy indikatorlar, moliyaviy hisobot.

**ОСНОВНЫЕ ЭЛЕМЕНТЫ ФОРМИРОВАНИЯ УЧЕТНОЙ ПОЛИТИКИ В
БУХГАЛТЕРСКОМ УЧЕТЕ МИКРОФИНАНСОВЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ**

Гафуров Искандар

*Самаркандинский филиал Ташкентского
государственного экономического университета*

Аннотация. В данной статье рассмотрены теоретические и практические основы формирования учетной политики в бухгалтерском учете микрофинансовых организаций. Системно проанализированы ключевые элементы учетной политики – форма ведения учета, способы признания процентного дохода, методы создания резервов и признания сомнительных долгов. На примере организаций "IMKON FINANS", "Vodiy Taraqqiyot" и "Biznes Finans" представлены различия учетной политики и даны рекомендации по их совершенствованию.

Ключевые слова: микрофинансовые организации, бухгалтерский учет, учетная политика, процентный доход, кредитные резервы, социальные индикаторы, финансовая отчетность.

**KEY ELEMENTS OF DEVELOPING ACCOUNTING POLICIES IN THE FINANCIAL
REPORTING OF MICROFINANCE ORGANIZATIONS**

Gafurov Iskandar

Samarkand Branch of the Tashkent State University of Economics

Abstract. This article explores the theoretical and practical foundations of forming accounting policy in microfinance institutions. Key elements such as accounting methods, interest income recognition, loan loss reserves, and bad debt recognition criteria are systematically analyzed. Using the examples of "IMKON FINANS", "Vodiy Taraqqiyot", and "Biznes Finans", differences in accounting policies are identified, and recommendations for improvement are provided.

Keywords: microfinance institutions, accounting, accounting policy, interest income, loan reserves, social indicators, financial reporting.

Kirish.

Mikromoliya tashkilotlari bugungi kunda iqtisodiy jihatdan zaif qatlamlarni moliyaviy xizmatlar bilan qamrab olish, ularning tadbirkorlik salohiyatini rivojlantirish hamda kambag'allikni kamaytirish kabi muhim ijtimoiy vazifalarni bajaruvchi institut sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston sharoitida mikromoliya sektori kichik biznes subyektlari va aholining past daromadli qatlamlari uchun muqobil moliyaviy manba vazifasini bajarib kelmoqda. Ushbu institutlarning faoliyat samaradorligi bevosita moliyaviy boshqaruv tizimi, ayniqsa buxgalteriya hisobining to'g'ri yuritishiga bog'liq.

Buxgalteriya hisobida aniqlik, izchillik va shaffoflikni ta'minlashda hisob siyosatining o'rni alohida ahamiyatga ega. Hisob siyosati – bu tashkilotning buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarini shakllantirishda amal qilinadigan tamoyillar, usullar va qoidalar tizimidir. Aynan ushbu siyosat mikromoliya tashkilotining moliyaviy holatini to'g'ri aks ettirish, resurslardan oqilona foydalanish, ichki nazorat va audit tizimini samarali tashkiletish imkonini yaratadi.

Mikromoliya tashkilotlari odatiy tijorat banklaridan farqli ravishda, nafaqat daromad olish, balki ijtimoiy ta'sir ko'rsatishga ham yo'naltirilgan bo'lganligi sababli, ularning buxgalteriya hisobida "ijtimoiy-moliyaviy yondashuv" talab etiladi. Bu esa, o'z navbatida, hisob siyosatini shakllantirishda ijtimoiy mezonnarning inobatga olinishi, foydalanuvchilarning turli ehtiyojlarini qondira oladigan universal axborot tizimini yaratishni taqozo etadi.

Bugungi kunda xalqaro moliyaviy hisob standartlariga mos ravishda, hisobotlar tayyorlashda asosiy e'tibor uzuksizlik, ehtiyyotkorlik, iqtisodiy mazmun ustuvorligi, to'liqlik va moslik kabi tamoyillarga qaratilmoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan milliy normativ hujjatlar, "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun va boshqa me'yoriy asoslar ham mikromoliya tashkilotlarida hisob siyosatining shakllanishi uchun muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur maqolada mikromoliya tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritishda hisob siyosatini shakllantirishning asosiy elementlari tizimli tarzda o'rganiladi, ularning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi hamda real tashkilotlar misolida (IMKON FINANS, Vodiylar Taraqqiyot, Biznes Finans) ko'rsatkichlar asosida baho beriladi. Bu orqali sohada hisob siyosatining amaliyotga moslashtirilgan modelini takomillashtirishga doir ilmiy xulosalar va takliflar ishlab chiqish maqsad qilingan.

Adabiyotlar sharhi.

Mikromoliya tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish, ayniqsa hisob siyosatini shakllantirish bo'yicha ilmiy qarashlar va amaliy yondashuvlar so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlanib bormoqda. Bu borada xorijiy va mahalliy adabiyotlarda turli metodik yondashuvlar shakllangan.

Mikromoliya faoliyati xususiyatlarini inobatga olgan holda, buxgalteriya hisobining asosiy elementlarini belgilash va ularni muayyan siyosat shakliga keltirish zarurati bir qator manbalarda o'z ifodasini topgan. Jumladan, Pikuzon (2007) mikromoliya faoliyatida garov operatsiyalarini hisobga olishda aniq yondashuvlar va schyotlar tizimini ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, "hisob siyosati buxgalteriya axborotining to'g'ri tuzilmasini shakllantirishning asosiy vositasidir".

O'zbekiston amaliyotiga asoslangan tadqiqotlarda esa mikromoliya tashkilotlarining hisob siyosatiga ijtimoiy ko'rsatkichlarni integratsiya qilish masalasi ilgari surilgan. Masalan, 2023 yil uchun IMKON FINANS mikromoliya tashkilotining yillik hisobotida hisob siyosatida hisoblangan foizlar va aktivlar bahosini aniqlashda xalqaro standartlarga yaqinlashuv kuzatilgan.

Iqtisodchi olim Joanna Ledgervod (2022) mikromoliya tashkilotlarida hisob siyosati moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun asosiy vositadir. Buxgalteriya amaliyoti aniq, shaffof va barqaror bo'lishi kerak.

Beatriz Armendariz (2023) mikromoliya buxgalteriyasi har qanday moliyaviy institut kabi standartlashgan yondashuvlarga tayanishi lozim, ammo aholining past daromadli qatlamlariga yo'naltirilganligi sababli ijtimoiy natijalar ham e'tiborga olinadi.

Kovalev va Baranova (2020) o'z tadqiqotlarida hisob siyosatini shakllantirishda asosiy yo'nalish sifatida axborotni foydalanuvchi subyektlar uchun maqsadli tuzilganligini belgilaydi. Bu esa mikromoliya tashkilotlari uchun ham investorlarga, ham ijtimoiy sheriklarga manzur bo'ladigan yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Shuningdek, Janubiy Afrika tajribasi asosida olib borilgan tadqiqotda hisob siyosatining xavflarga moslashuvchan holda shakllanishi tavsiya etiladi. Tadqiqotda "har bir hisob siyosati elementi mijoz va tashkilotning moliyaviy xulq-atvori bilan bog'langan holatda aniqlanishi zarur" deb ta'kidlanadi (IFRS, 2022).

Raqamli hisobotlar muhiti hamda Markaziy bankning yillik hisobotlari va statistik byulletenlari orqali ham hisob siyosati orqali samaradorlikni ta'minlash imkoniyati ko'rsatib berilgan. Xususan, "Vodiy Taraqqiyot" va "Biznes Finans" tashkilotlarining 2020–2022 yillarga oid moliyaviy hisobotlarida hisobga olish mezonlari o'rtaida farqlar aniqlanib, hisob siyosatini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, mikromoliya tashkilotlari uchun hisob siyosati universal emas, balki modulli, moslashuvchan va ijtimoiy-moliyaviy balansga asoslangan bo'lishi lozim. Bu yondashuv ilmiy asoslarni mustahkamlash va amaliyotga tatbiq qilish uchun muhim poydevor hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada mikromoliya tashkilotlari hisob siyosatini shakllantirish bo'yicha ilmiy va amaliy manbalar tahlil qilinib, nazariy asoslarni xalqaro standartlar (IFRS), O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan buxgalteriya hisobiga oid normativ hujjatlar asos qilib olindi. Metod sifatida taqqoslash, tahliliy sintez, amaliyotdan misollar olish va tizimlashtirish usullaridan foydalanildi. IMKON FINANS, Vodiy Taraqqiyot va Biznes Finans mikromoliya tashkilotlari faoliyatidan olingan amaliy materiallar asosida xulosa chiqarildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mikromoliya tashkilotlarda hisob siyosatini shakllantirishda nazariy tamoyillarni amaliyotga tatbiq etish darajasi har doim ham yuqori bo'lmagan. Tashkilotlarning o'ziga xos faoliyati, xizmat ko'rsatish segmenti va moliyaviy instrumentlarining xilma-xilligi hisob siyosatini ishlab chiqishda individual yondashuvni talab etadi. Tadqiqot doirasida IMKON FINANS, Vodiy Taraqqiyot va Biznes Finans mikromoliya tashkilotlarining hisob siyosati elementlari tahlil qilindi va quyidagi asosiy natijalarga erishildi.

Birinchidan, barcha tashkilotlarda hisob yuritish shakli avtomatlashtirilgan dasturiy ta'minotga asoslangan bo'lsa-da, daromadlarni tan olishda uslubiy yondashuvlar turlicha. Masalan, IMKON FINANS tashkiloti foiz tushumlarini hisoblashda hisoblashda usulini qo'llasa, Biznes Finans real tushum asosida e'tirof etadi. Bu esa hisobotlar solishtiruvchanligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan, xarajatlarni tan olish, aktivlarni baholash va zaxiralarni shakllantirishda ham bir xillik yo'q. Bu holat tashkilotlarning hisob siyosati bo'yicha ichki hujjatlarining dolzarbli va yangilanishiga bog'liq. Ayniqsa, kredit zaxiralari shakllanishi va yomon qarzlarni tan olish mezonlari har bir tashkilotda turlicha.

Uchinchidan, ijtimoiy indikatorlarning hisob siyosatida o'z ifodasini topmaganligi kuzatildi. Faqat IMKON FINANS mikromoliya tashkilotining strategik hujjatlarida "ijtimoiy missiya" qayd etilgan bo'lsa-da, bu buxgalteriya hisobining shakllanishida to'liq aks etmagan.

Quyidagi jadvalda hisob siyosatining asosiy elementlari bo'yicha uchta tashkilot faoliyati solishtirildi:

1-jadval**Mikromoliya tashkilotlarida hisob siyosati elementlari bo'yicha solishtirma tahlil**

Nº	Hisob siyosati elementi	Imkon finans	Vodiy Taraqqiyot	Biznes Finans
1	Hisob yuritish shakli	Avtomatlashtirilgan	Avtomatlashtirilgan	Avtomatlashtirilgan
2	Foiz tushumini tan olish usuli	Hisoblangan foiz asosida	Real tushum asosida	Real tushum asosida
3	Kredit zaxiralarni shakllantirish	3 bosqichli model asosida	2 bosqichli baholash	Statik ko'rsatkichlar asosida
4	Amortizatsiya usuli	Chiziqli usul	Tezlashtirilgan usul	Chiziqli usul
5	Yomon qarzlarni e'tirof etish mezoni	90 kun	120 kun	90 kun
6	Ijtimoiy ko'rsatkichlar hisobda aks etishi	Qisman (strategiyada mavjud)	Mavjud emas	Mavjud emas

Ushbu tahlil shuni ko'rsatadi, mikromoliya tashkilotlarida hisob siyosatini shakllantirishda yagona yondashuv yo'q va tashkilotlar faoliyatiga mos, moslashuvchan, dinamik tizimli yondashuv asosidagi uslubiy qoidalarni ishlab chiqish zarur. Ayniqsa, xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga moslashtirilgan, real amaliyotga integratsiyalashgan hisob siyosatini shakllantirish tashkilotlarning moliyaviy barqarorligini oshirish bilan birga, auditorlik tekshiruvlarining aniqligini ham ta'minlaydi.

Natijaviy jihatdan aytish mumkinki, mikromoliya tashkilotlarining hisob siyosatini takomillashtirish, ularning moliyaviy hisobotlari sifati va tahliliy ahamiyatini oshirish bilan birga, sektor darajasida solishtiruvchanlik va shaffoflikni kuchaytiradi. Bu esa investorlar, regulyatorlar va jamoatchilik uchun ishonchli moliyaviy axborotni taqdim etishning muhim omilidir.

Xulosa va takliflar.

O'tkazilgan tadqiqotlar mikromoliya tashkilotlarida hisob siyosatini shakllantirish muhim va murakkab jarayon ekanini ko'rsatdi. Mikromoliya subyektlari moliyaviy xizmatlar bilan bir qatorda ijtimoiy missiyani ham bajarganligi sababli, ularning buxgalteriya hisobini yuritish va siyosatini ishlab chiqishda an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda, ijtimoiy mas'uliyatli yondashuv ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Hisob siyosatining asosiy elementlari — buxgalteriya hisobini yuritish shakli, foiz daromadlarini e'tirof etish usuli, amortizatsiya siyosati, zaxiralarni shakllantirish mezonlari va yomon qarzlarni tan olish me'zonlaridan iborat bo'lib, ular mikromoliya tashkilotlarining moliyaviy hisobotlari aniqligi va shaffofligiga bevosita ta'sir qiladi. Ayniqsa, foiz tushumlarini hisoblash usuli va ijtimoiy ko'rsatkichlarni hisob siyosatiga integratsiyalash bo'yicha yondashuvlar tashkilotlar o'rjasida farqlanadi.

Tadqiqotda Imkon finans, Vodiy Taraqqiyot va Biznes Finans mikromoliya tashkilotlarining amaliy faoliyati asosida hisob siyosati tahlil qilinib, mavjud farqlar va umumiylu muammolar aniqlab berildi. Ushbu tashkilotlarda foiz tushumlarini hisoblash, kredit zaxiralarni yaratish va yomon qarzlarni e'tirof etish mezonlari har xil bo'lib, bu holat moliyaviy hisobotlarni solishtirish va tahlil qilish imkoniyatlarini cheklaydi.

Mikromoliya tashkilotlari uchun yagona, lekin moslashuvchan, ijtimoiy va moliyaviy komponentlarni o'zida mujassam etgan hisob siyosati modelini ishlab chiqish dolzarbdir. Bu orqali tashkilotlar o'z faoliyatini xalqaro standartlarga yaqinlashtirishi, moliyaviy intizomni kuchaytirishi va investorlar ishonchini oshirishi mumkin. Shu bilan birga, ushbu yondashuv ichki audit tizimi va strategik boshqaruv qarorlarini samarali qo'llab-quvvatlash imkonini yaratadi.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

- IFRS (2022). Молиявий ҳисоботлар халқаро стандартлари (IFRS). – Лондон: IFRS Foundation, – 215 б.
- Jansen van Vuuren S.J. (2011) Risk Management for Microfinance Institutions in South Africa: Master's thesis ... M.Com. – Pretoria: University of Pretoria, – 130 p.
- Markaziy banking 2021 yil uchun yillik hisoboti (2022). – Toshkent: MB, – 114 b.
- Microfinance Handbook (1999)
- Rhyne E. (2001) Mainstreaming Microfinance. – Bloomfield: Kumarian Press, – 263 p.
- Vodiy Taraqqiyot MMT 2020–2022 yillarga oid moliyaviy hisobotlari (2023). – Andijon,
- Yunus M. (2007) Creating a World Without Poverty. – New York: PublicAffairs, – 261 p.
- Исломов Б.Б. (2020) Микромолия институтлари: назарий асослар ва ривожланиши истиқболлари. – Тошкент: Иқтисодиёт, – 248 б.
- Ковалев И.И., Баранова Т.Н. (2020) Методическое обеспечение бухгалтерского учета в сельскохозяйственных кредитных кооперативах / И.И. Ковалев, Т.Н. Баранова. – Москва: Юнити-Дана, – 280 с.
- Қонун (1996) Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида // Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. – Тошкент, – №279-I.
- Пиқузон Н.Г. (2007) Бухгалтерский учет залоговых операций в ломбардах: дис. ... канд. экон. наук. – Новосибирск: Сибирский университет потребительской кооперации, – 144 с.